


“Imom Buxoriy” ordeni ta’sis etildi


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yilning 15 avgustida “Imom Buxoriy” ordenini ta’sis etish to‘g‘risidagi O‘RQ–789-sonli qonun imzolandi.



Mazkur orden bilan ilm-fan va madaniyat, jumladan, islom ma’rifati rivojiga hissa qo‘shgan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy merosini o‘rganish hamda targ‘ib qilishda katta yutuqlarga erishgan fuqarolar mukofotlanadi.

Ushbu qonun hujjatining mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish maqsadida “O‘zyo‘lloyiha” DUK xodimlari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi. Qonunga muvofiq, orden ikki darajadan: “Oliy darajali Imom Buxoriy” ordeni hamda «Imom Buxoriy» ordenidan iborat bo‘lishi borasida korxonada Yuridik byurosi boshlig‘i Sadoqat Samiyeva tushuntirib o‘tdi.





“Oliy darajali Imom Buxoriy” hamda “Imom Buxoriy” ordenini ta’ sis etishdan ko‘zlangan maqsad hamda ushbu orden bilan mukofotlash tartibi to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.